

## BASKETBOL O'YININING PAYDO BO'LISH TARIXI VA RIVOJLANISHI

*Xomudjonova Feruza*

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti*

*Jismoniy tarbiya o'qituvchisi, dotsent.*

*Hamdamova Sug'diyona*

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti*

*Jismoniy madaniyat 3 - kurs sirtqi bo'lim talabasi.*

**Kalit so'zlar:** *Basketbol, texnika, taktika, to'p, harakatlar, musobaqa, o'yin.*

**Annotatsiya:** *Maqola mazmuni Basketbol o'yinining kelib chiqishi va paydo bo'lishini yaqqol tarzda va faktlarga asoslangan xolda ochib beradi.*

### **Kirish.**

Basketbol o'yini barchaning birdek diqqatini tortuvchi, qiziqarli, serharakat va shiddatli o'yin hisoblanadi. Hozirgi kunda basketbol o'yini nafaqat oliy ta'limda, balki maktab programmasiga ham kiritilgan hisoblanadi. Bo'lajak basketbolchilarni tarbiyalash uchun esa o'qituvchidan katta mahorat talab qilinadi. Basketboldagi har bir harakatlar ( to'pni olib yurish, uloqtirish, aldab o'tish va h. k) uchun aloxida mahorat talab qilinadi. Bu o'yinni mukammal tarzda tushunib olish va maydonda texnik va taktik harakatlarga suyangan holda harakatlanish talab etiladi.

### **Asosiy qism.**

Basketbol o'yini 1891 - yilda AQShning Masashusti shtatidagi Springfield kollejining jismoniy tarbiya o'qituvchisi Djemis Neysmit tomonidan o'ylab topilgan. O'yinning asosiy kelib chiqishi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Basketbol savatga tashlanadigan o'yin bo'lganligi uchun ham basket - savat, bol - to'p degan ma'noni anglatadi.

1892 - yilda Neysmit o'yin qoidasining 13 moddasini tuzib chiqadi va shundan keyin musobaqalar o'tkazila boshlanadi. Qoidalari esa yildan yilga o'zgarib, bu o'yin yanada rivojlanib boraveradi. Ayollar o'rtasida Yevropa chempionati 1938 - yilda Rimda bo'lib o'tadi. 1932 - yil Basketbolning Xalqaro federatsiyasi tashkil etildi. Shu tarzda basketbol yildan yilga rivojlanib, uning texnik va taktik usullari shakllana boradi.

O'zbekistonda basketbol o'yini 1913 - 14 - yillarda kirib kelganligi haqida ham ma'lumotlar bor, ammo o'lkamizga 1917 - yildan chinakam rivojlana boshlanadi. 1920 - yillarda Farg'ona basketbol jamoasi tashkil qilinadi.

Basketbol juda serharakat o'yin bo'lganligi uchun 10 minutdan 4 taym o'ynaladi. Bu vaqt ichida Jamoalar zarbani qaytarib, to'pga egalik qilib raqib jamoadan achko olib kelishlari kerak bo'ladi. Shu tarzda musobaqa yoki addiy o'yinlar tashkillashtiriladi. Har bir basketbolchidan talab qilinadigan asosiy narsa tezlik va to'p bilan yaxshi muomala qilishlari kerak bo'ladi. Texnik usullarni birlashtirgan holda musobaqada g'alaba qozonishadi ya'ni har bir sportchi o'ziga xoz texnik harakatlar va taktik usullardan foydalansa raqib tomondan ancha ustunlikni qo'lga kiritadi. Sababi texnik usullarni mukammal bajara olmaydigan basketbolchi uzoqqa bora olmaydi. Barchamizga ma'lumki texnika va taktika iboralari barcha sport turlarida keng tarqalgan va doimo foydalanib kelinadigan iboralar hisoblanadi. Shu sababli ham qaysi sport turini o'rganishga qaramasdan uning texnik usullariga birinchi navbatda e'tibor qaratiladi.

### **Xulosa.**

Basketbol hozirgi kunda butun jahonning sevib o'ynaladigan o'yini hisoblanadi. Sababi serharakat o'yin doimo qiziqarli kechadi, basketbol esa serharakatliligi bilan boshqa sport turlaridan ajralib turadi. Bizning o'lkamizga basketbol o'yini kirib kelganidan bir muncha vaqt o'tib Farg'onada tuzilgan jamoa ham tez fursatlarda omma olqishiga va e'tiboriga sazovor bo'ladi. Basketbolning texnik usullari, to'p bilan qilinadigan muomala va aldab o'tishlar sportchidan o'zgacha mahorat talab etiladi. Taktika esa mahoratni jamlagan holda ko'zlangan reja hisoblanadi. Taktik hujum texnik usullar orqali harakatlangan basketbolchi

doimo yuksaladi. Shu junladan basketbolning hozirgacha biza yetib kelishiga Neysmitning hissasi ulkan hisoblanadi. Keyinchalik esa bu o'yin yildan yilga rivojlanib yana qonun woidalariga o'zgartirishlar kiritilib kelingan.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. V. N Semashko. „ Baskedbol "
2. R. Abdumalikov J. Eshnazarov „ Jismoniy madaniyat va sport tarixi".